

“Yo’lqurilish” AJ
Yagona aksiyadorining
2020 yil “30” *sentyabr* dagi
3 -sonli qaroriga 2-ilova bo’lib
“TASDIQLANGAN”

“Yo’lqurilish”
AKSIYADORLIK JAMIYATI
USTAVI

(yangi tahrirda)

Toshkent sh., 2020 yil

Ustav bo'limlari:

I bo'lim. Umumiy qoidalar

II bo'lim. Jamiyatning asosiy vazifalari hamda funksiyalari

III bo'lim. Jamiyatning ustav kapitali. Uni ko'paytirish yoki kamaytirish tartibi. Jamiyatning aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari

IV bo'lim. Jamiyatning huquqlari

V bo'lim. Jamiyat faoliyatini boshqarish

VI bo'lim. Jamiyatning mulki, vositalari va sarmoyalari

VII bo'lim. Hisobga olish, hisobot berish va nazorat

VIII bo'lim. Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish

IX bo'lim. Yakuniy qoidalar.

I BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR

1. "Yo'lqurilish" aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda "Jamiyat" deb ataladi) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining yo'l xo'jaligi tizimini chuqur isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5890-son Farmoni hamda "Yo'l sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chara-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4545-son qarori va Jamiyatning yagona aksiyadori O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2020 yil 10 apreldagi 96-p-sonli buyrug'iga asosan tashkil etilgan.

2. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq Jamiyatning huquqiy holati aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.

3. Jamiyat tijorat tashkiloti hisoblanadi.

4. Jamiyatni tashkil etish, faoliyat yuritishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

5. Jamiyatning nomi:

o'zbek tilida – "Yo'lqurilish" aksiyadorlik jamiyati (qisqartirilgan nomi - "Yo'lqurilish" AJ) yoki kirill harflarida "Йўлқурилиш" акциядорлик жамияти (qisqartirilgan nomi - "Йўлқурилиш" АЖ);

rus tilida – Акционерное общество «Йулқурилиш» qisqartirilgan nomi - АО «Йулқурилиш».

ingliz tilida – Joint stock company "Yulkurilish" qisqartirilgan nomi – JSC "Yulkurilish".

6. Jamiyat yuridik shaxs hisoblanadi, o'zining mustaqil balansida aks ettiriladigan alohida mulkka, shu jumladan o'zining ustav kapitaliga berilgan mol-mulkka, bank muassasalarida hisob raqamlariga, jumladan valyuta hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi tasviri tushirilgan dumaloq muhrga, davlat tilida yozilgan emblema (logotip) va shtamplarga ega. Muhrdan bir vaqtning o'zida Jamiyatning nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin.

7. Jamiyatning tashkiliy tuzilmasiga mulkchilik shakli va idoraviy mansubligidan qat'iy nazar korxonalar va tashkilotlar, shuningdek chet el yuridik shaxslari kirishi mumkin.

8. Jamiyat qonunchilikda belgilangan tartibda korxonalar, tashkilot va muassasalar, jumladan filiallar hamda vakolatxonalar tashkil etishi mumkin.

9. Jamiyat o'z faoliyatini amalga oshirishda, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, Oliy Majlis palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga va mazkur Ustavga amal qiladi.

10. Mazkur Ustav bilan tartibga solinmagan huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek xalqaro bitimlar va shartnomalar bilan tartibga solinadi.

11. Jamiyatning joylashgan manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yashobod tumani, P.Maxmud 2 tor ko'chasi, 26 uy., pochta indeksi - 100047.

12. Jamiyatning elektron pochta manzili: info@yulqurilish.uz.

13. Jamiyatning rasmiy veb-sayti: www.yulqurilish.uz.

II BO'LIM. JAMIYATNING ASOSIY VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI

14. Jamiyat tijorat tashkiloti bo'lib, asosiy maqsadi moliyaviy-xo'jalik faoliyatidan foyda olishdir.

15. Jamiyat faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- xalqaro standartlar asosida innovatsion texnologiyalarni joriy etgan holda avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash;

- zamonaviy avtoyo'l konstruksiyalari va uskunalarini, shuningdek, yuqori sifatli yo'l-qurilish materiallarini ishlab chiqarish;

- avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlashda mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish;

- jamiyat tarkibiga kiradigan yo'l-qurilish va boshqa korxonalarni bosqichma-bosqich xususiy lashtirish choralarini amalga oshirish.

16. Tadbirkorlik faoliyatini olib borish maqsadida Jamiyat quyidagilarga haqli:

- Jamiyat vakolatlariga kiruvchi masalalar bo'yicha me'yoriy xujjatlarni loyihalarini o'rnatilgan tartibda sohaga oid qo'mitaga, vazirlikka, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga ko'rib chiqish uchun kiritish;

- Jamiyat o'z vakolati doirasida me'yoriy xujjatlar, uslubiy xujjatlarni (texnologik reglament, tushuntirishlar va boshqalar) o'rnatilgan tartibda ishlab chiqish va tasdiqlash huquqiga ega;

**III BO'LIM. JAMIYATNING USTAV KAPITALI.
UNI KO'PAYTIRISH YOKI KAMAYTIRISH TARTIBI. JAMIYATNING
AKSIYALARI, OBLIGASIYALARI VA BOSHQA QIMMATLI
QOG'OZLARI**

19. Jamiyatning qo'shimcha aksiyalar, obligasiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni emissiya qilishga haqli.

20. Jamiyat ustav kapitali Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalanadi.

21. Jamiyat ustav kapitalining miqdori 95 133 160 000 (to'qson besh milliard bir yuz o'ttiz uch million bir yuz oltmish ming) so'mni tashkil qilib, har bir aksiyaning nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan 95 133 160 (to'qson besh million bir yuz o'ttiz uch ming bir yuz oltmish) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyadan iborat.

22. Jamiyat ustav kapitali qo'shimcha aksiyalar joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

23. Jamiyat ustav kapitalini ko'paytirish (aksiyalarni joylashtirish narxini belgilash, aksiyalar emissiyasi risolasi va ularni chiqarish) va bu to'g'risida mazkur ustavga tegishli o'zgartirish kiritish haqidagi qarorni Jamiyat Yagona aksiyadori qabul qiladi.


24. Agar qonunchilikda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, qo'shimcha aksiyalar yopiq obuna usulida joylashtirilishi mumkin.

25. Qo'shimcha ravishda chiqarilgan aksiyalar uni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilangan, lekin davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan ortiq bo'lmagan muddatda joylashtirilishi lozim.

26. Jamiyat ustav kapitalini oshirish uchun oddiy, e'lon qilingan nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan 50 000 000 000 (ellik milliard) dona - umumiy qiymati 50 000 000 000 000 (ellik trillion) so'mga qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish huquqiga ega.

27. E'lon qilingan aksiyalarning umumiy soni doirasida chiqarishda va joylashtirishda aksiyalarning sotib olingan qismi Jamiyat ustav kapitaliga o'tkaziladi.

28. Jamiyatning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan, aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.



29. Jamiyat ustav kapitalini kamaytirish, Jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartirish kiritish, Jamiyat Ustavini yangi tahrirda tasdiqlash to'g'risidagi qaror Jamiyat kuzatuv kengashining yig'ilishini o'tkazmasdan, Jamiyat Yagona aksiyadori tomonidan qabul qilinadi.

30. Jamiyatda ustav kapitalining 15 foizi miqdorida zaxira fondi tashkil etiladi.

31. Jamiyatning zaxira fondi har yili sof foydadan yillik majburiy to'lovlar ajratish yo'li bilan ustav kapitalning 15 foiziga yetmaguncha shakllantirib boriladi.

32. Zaxira fondiga ajratmalarning yillik hajmi Jamiyat sof foydasining 5 foizidan kam bo'lmasligi lozim.

33. Jamiyatning zaxira fondidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalaniladi.

34. Jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga binoan boshqa fondlar ham tashkil etilishi mumkin.

IV BO'LIM. JAMIYATNING HUQUQLARI

35. Jamiyat Ustavda belgilangan vazifa va funksiyalarini bajarish maqsadida quyidagi huquqlarga ega:

- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti va aholisi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda davlat buyurtmalari va bevosita shartnomalar (kontraktlar) asosida sotiladigan mahsulot, ishlar va xizmatlar hajmini mustaqil ravishda belgilash;

- o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga egalik qilish va ularni amalga oshirish, zimmasiga majburiyatlar olish, sudda da'vogar va javobgar bo'lish;

- belgilangan tartibda bo'linmalar, markazlar, firmalar, korxonalar, filiallar, vakolatxonalar, qo'shma korxonalar tashkil etish, turli respublikadagi va xalqaro tashkilotlar va birlashmalarga a'zo bo'lish;

- qonunchilikda belgilangan tartibda aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlarini chiqarish va joylashtirish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini sotib olish;

- Jamiyatning ishchilariga va boshqa shaxslarga, jumladan zayom ajratgan holda uy-joylar qurish, sotib olish va ularni belgilangan tartibda jismoniy va yuridik shaxslarga sotish;

V BO'LIM. JAMIYAT FAOLIYATINI BOSHQARISH.

36. Jamiyat Yagona aksiyadori, kuzatuv kengashi va ijroiya organi Jamiyatning boshqaruv organlaridir.

37. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 58 - moddasiga asosan, Jamiyatda aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar Jamiyatning Yagona aksiyadori tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

38. Jamiyatning kuzatuv kengashi 5 (besh) kishidan iborat.

39. Jamiyat Boshqaruvi Jamiyatning Ijroiya organi hisoblanadi.

40. Jamiyat va uning tarkibiy bo'linmalari, korxonalari, tashkilotlari va muassasalari o'rtasidagi munosabatlar qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

41. Jamiyat tomonidan o'tgan moliyaviy yil uchun belgilangan biznes reja parametrlarining sof foyda ko'rsatkichi bajarilgan taqdirda, Jamiyatning homiylik va boshqa qaytarilmaydigan yordamlar uchun xarajatlari o'tgan yil sof foydasining 5 foizidan ortib ketmasligi shart.

Jamiyat Yagona aksiyadorining vakolatlari

42. Jamiyat Yagona aksiyadori yig'ilishi Jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

43. Jamiyat Yagona aksiyadori yig'ilishi har yili moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi.

44. Jamiyat Yagona aksiyadorining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

- Jamiyatni qayta tashkil etish;

- Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

- Jamiyat kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

- Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish yoki kamaytirish;

- Jamiyatning o'z aksiyalarini olishi;

- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;

- Jamiyat ijroiya organini tuzish, Jamiyat boshqaruv raisini saylash (tayinlash) va uning vakolatini muddatidan ilgari tugatish. Shuningdek, Jamiyat boshqaruv raisining taqdimnomasiga asosan boshqaruv a'zolarini saylash (tayinlash) va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish.

- Jamiyat taftish komissiyasi a'zolarini (taftishchisini) saylash va ularning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish;

- Jamiyat yillik hisobotini tasdiqlash;

- Jamiyat yillik biznes-rejasini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

- Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;

- Jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining o'z vakolati doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, jumladan jamiyatni boshqarishda qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etish bo'yicha xulosalarini eshitish;

- Jamiyat tomonidan korporativ obligasiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning korporativ obligasiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyat aksiyalarini maydalash va yiriklashtirish bo'yicha qaror qilish;

- Jamiyat ijroiya organiga to'lanadigan haq va (yoki) kompensasiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;

- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan holatlarda Jamiyat tomonidan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

- majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyat ijroiya va nazorat organlari ma'ruza (hisobot)lari shakl va tarkibiga talablarni belgilash;

- O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar) va emissiya risolasini chiqarish to'g'risidagi qarorni tasdiqlash;

- qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar)ni chiqarish to'g'risidagi qarorga va emissiya risolasiga o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritish va ularni matnini tasdiqlash;

- dividendlarni miqdori, to'lash shakli va tartibi bo'yicha qaror qabul qilish;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish;

Jamiyat Kuzatuv kengashi

45. Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolatiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyatning yillik biznes-rejasini ma'qullash. Bunda Jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;

- Jamiyatning ichki audit xizmatini tashkil etish, uning xodimlarini tayinlash va "Ichki audit xizmati to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

- Jamiyatning taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensasiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;

- Jamiyat ijro etuvchi organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan belgilangan tartibda erkin foydalanish va Jamiyat Kuzatuv kengashiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun ushbu hujjatlarni Jamiyat ijroiya organidan olish. Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

- Jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlov asosida jalb etish;

- dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

- O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan holatlarda bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish;

- Jamiyatning filiallarini tashkil etish hamda vakolatxonalarini ochish va tugatish;

- Jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

- Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish.

- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

- Jamiyat biznes-rejasida belgilangan maqsadlarga erishishni monitoring qilish;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

46. Jamiyat Kuzatuv kengashi faoliyatining tartibi Jamiyat Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizomda belgilanadi.

47. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolati doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyat Boshqaruviga hal etish uchun berilishi mumkin emas.

48. Jamiyat Kuzatuv kengashi qarorlari, qonunchilikda va mazkur Ustavda boshqa qoida belgilanmagan bo'lsa, oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

49. Jamiyat Kuzatuv kengashining yig'ilishlari har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi.

50. Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlari sirtidan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Jamiyat Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

51. Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi, Kuzatuv kengash tomonidan qaror qabul qilish paytida, agar ovozlar soni teng bo'lib qolsa, hal qiluvchi ovozga ega bo'ladi.

Jamiyat Ijroiya organi

52. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik ijroiya organ – Jamiyat Boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv faoliyatiga Jamiyat Boshqaruv Raisi rahbarlik qiladi.

53. Jamiyat Boshqaruvi 3 (uch) kishidan iborat.

54. Jamiyat Boshqaruvi tarkibiga Boshqaruv Raisi va uning o'rinbosarlari, boshqarma boshliqlari, bo'lim boshliqlari va xodimlar kirishi mumkin.

55. Jamiyat Boshqaruvi kollegial ijroiya organ asosidagi ijro etuvchi organ hisoblanib, uning kundalik faoliyatini boshqaradi va operativ rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat Ustavi, Jamiyat yagona aksiyadori va Kuzatuv kengashining qarorlariga muvofiq amalga oshiradi.

56. Jamiyat Boshqaruvi Jamiyat yagona aksiyadori va Kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

57. Jamiyat Boshqaruv raisi Jamiyat Yagona aksiyadori tomonidan qonunchilikda va mazkur Ustavda belgilangan tartibda bir yillik muddatga saylanadi (tayinlanadi). Shuningdek, Jamiyat boshqaruv raisining taqdimnomasiga asosan boshqaruv a'zolari Jamiyat Yagona aksiyadori tomonidan qonunchilikda

va mazkur Ustavda belgilangan tartibda bir yillik muddatga saylanadilar (tayinlanadilar).

58. Jamiyat Boshqaruv raisi bilan mehnat shartnomasini Jamiyat nomidan Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi imzolaydi. Boshqaruv a'zolari bilan mehnat shartnomalarini Jamiyat nomidan Boshqaruv raisi imzolaydi.

59. Jamiyat xodimlari mazkur Ustavga va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Jamiyat Boshqaruv raisi bilan mehnat shartnomasini tuzadilar.

60. Jamiyat Boshqaruvining vakolatlariga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, Jamiyat yagona aksiyadorining mutlaq vakolatlariga yoki Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

61. Jamiyat Boshqaruvi Jamiyat Yagona aksiyadori va Kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

62. Jamiyat Boshqaruvi ushbu Ustav va Jamiyat Yagona aksiyadori tomonidan tasdiqlangan "Ijroiya organi to'g'risida"gi Nizom asosida ish olib boradi.

63. Jamiyat Boshqaruvining majlisi zarur hollarda, biroq bir oyda kamida bir marta o'tkaziladi.

64. Jamiyat Boshqaruvi majlisi uning kun tartibiga kiritilgan masalalarni, agar majlisda Boshqaruv a'zolarining 50 foizidan ortiq qismi qatnashsa, hal qilishga haqlidir.

65. Jamiyat Boshqaruvi majlisida qarorlar majlisda qatnashayotgan Boshqaruv a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Boshqaruv majlisida masalalar hal etilayotganda Boshqaruvning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda Jamiyat Boshqaruvi Raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

66. Jamiyat Boshqaruvi tomonidan qabul qilingan qarorga rozi bo'lmagan Boshqaruv a'zolari o'z fikrlarini Jamiyat Kuzatuv kengashiga bildirishlari mumkin.

67. Boshqaruv majlisida bayonnoma yuritiladi. Bayonnoma majlisda ishtirok etayotgan Jamiyat Boshqaruv a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi. Boshqaruv majlisining bayonnomasi Kuzatuv kengashi va Taftish komissiyasi a'zolariga, shuningdek auditorga ularning talabiga ko'ra beriladi.

68. Jamiyat Boshqaruvining majburiyatlari va vakolatlariga qo'yidagilar kiradi:

- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning mol –mulki va pul mablag'larini tassaruf etish;

- Jamiyatning tarkibiy bo'linmalar to'g'risidagi nizomlar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash;

- Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash, Jamiyat yagona aksiyadorining yoki Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno;

- Jamiyat va uning sho'ba korxonalari, vakolatxonalari va filiallari uchun majburiy bo'lgan qaror, buyruq va farmoyishlar chiqarish;

- Jamiyat filiallari va vakolatxonalari nizomlarini tasdiqlash va ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

- Jamiyat ishtiroki ulushi bo'lgan korxonalar ta'sis hujjatlarini tasdiqlash bo'yicha qarorlar qabul qilish, shuningdek o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

- Jamiyatning tarkibiy bo'linmalarining o'zaro samarali harakatini ta'minlash;

- Jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalari ishlab chiqish, ularni tashkil etish va bajarilishini nazorat qilish;

- Jamiyatning vakolatli boshqaruv organi tomonidan tasdiqlangan biznes-rejada ko'rsatilgan miqdorlarda foyda olishni ta'minlash;

- qonunchilikka muvofiq Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etilishi, zarur holati va ishonchliligini, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek Jamiyat yagona aksiyadoriga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash;

- Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlar Jamiyatning Kuzatuv kengashi, Taftish komissiyasi yoki Jamiyat auditori talabiga ko'ra taqdim etish;

- o'z vakolati doirasida mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim tuzish (bitim tuzish masalasida Jamiyat Boshqaruvi yakdilligiga erishilmagan hollarda bitim tuzish to'g'risidagi masala Jamiyat boshqaruvi qaroriga muvofiq Kuzatuv kengashi hukmiga havola etilishi mumkin);

- Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlash. Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar ro'yxati Jamiyat Boshqaruvi tomonidan belgilanadi;

- o'z vakolatiga tegishli ishlarning holati to'g'risidagi axborotni Jamiyat yagona aksiyadoriga va Jamiyat Kuzatuv kengashiga belgilangan muddatda taqdim etish;

- Jamiyat Kuzatuv kengashi majlislarida qatnashish, dividendlar hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilish;

- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, hamda Jamiyat ichki hujjatlariga rioya qilish;

- Jamiyatning Boshqaruvi qonunchilik, ushbu ustav va Jamiyatning me'yoriy xujjatlariga muvofiq boshqa xuquq (vakolat) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

69. Jamiyat Boshqaruv raisining majburiyatlari va vakolatlariga qo'yidagilar kiradi:

- o'zining vakolatlari doirasida Jamiyatning ishiga rahbarlik qilish;

- Jamiyat Kuzatuv kengashining roziligiga ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etadi;

- davlat statistika hisoboti va buxgalteriya xisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlaydi;

- Jamiyatni malakali kadrlar bilan ta'minlaydi, Jamiyat xodimlarining bilimi, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan eng yaxshi foydalanish choralarini ko'radi;

- Jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishini va ular mehnatini muhofaza qilishni ta'minlaydi;

- Shtatlarni belgilaydi, xodimlarning shtat ro'yxatini tasdiqlaydi;

- Jamiyatning filiallari va vakolatxonalari rahbarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod etadi;

- Jamiyat filillari va vakolatxonalari shtat jadvallarini tasdiqlaydi;

- Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, davlat muassasalari, barcha mulk shakllaridagi korxonalar va tashkilotlarda uning manfaatlarini himoya qiladi;

- banklarda hisob raqamlar shu jumladan valyuta hisob raqamlarini ochadi va Jamiyatning bank va boshqa moliya xujjatlarida birinchi imzo vakolatiga ega bo'ladi;

- o'zining vakolatlari doirasida, Jamiyat mijozlari, korxonalar va tashkilotlar bilan shartnomalar va kontraktlarni imzolaydi va bitimlar tuzadi;

- Jamiyat xodimlarini ishga qabul qiladi, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi, ularga nisbatan intizomiy jazo va rag'batlantirish choralari qo'llaydi, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlaydi;

- Jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni beradi;

- Jamiyat va uning shu'ba korxonalari, vakolatxonalari va filiallari uchun majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqaradi, topshiriq va ko'rsatmalar beradi;

- Jamiyat Boshqaruvi raisi, qonunchilik, ushbu Ustav va Jamiyatning me'yoriy xujjatlariga muvofiq boshqa xuquq (vakolat) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

70. Jamiyat Boshqaruv raisi va Boshqaruv a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z burchlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari lozim.

71. Jamiyat Boshqaruv raisi va a'zolari Jamiyat va uning aksiyadori oldidagi o'z majburiyatlarini zarur darajada bajarmaganliklari uchun qonun hujjatlariga va mazkur Ustavga muvofiq javobgar bo'ladilar.

72. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Jamiyat Boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi.

73. Boshqaruv Raisini lavozimidan bo'shatish (vakolatini tugatish) haqidagi qaror qonunchilikda belgilangan tartibda Jamiyat yagona aksiyadori tomonidan qabul qilinadi.

74. Boshqaruv raisining taqdimnomasiga asosan Boshqaruv a'zolarini lavozimga tayinlash yoki lavozimidan bo'shatish (vakolatini tugatish) haqidagi qaror Jamiyat yagona aksiyadori tomonidan qabul qilinadi.

75. Boshqaruv raisi va boshqaruv a'zolari tomonidan ushbu Ustav va mehnat shartnomasi shartlari qo'pol ravishda buzilsa, yoxud Jamiyat biznes-rejasining tasdiqlangan ko'rsatgichlarni bajarilishi buzilgan hollarda va ularning harakatlari (harakatsizligi) natijasida Jamiyatga keltirilgan zararlari sababli ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi qonunchilikda belgilangan tartibda muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

76. Jamiyat Boshqaruv raisi va boshqaruv a'zolari vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan holda ularning vazifasini vaqtincha bajarishni Jamiyat Yagona aksiyadorining qaroriga muvofiq tayinlangan shaxs olib borishi mumkin.

VI BO'LIM. JAMIYATNING MULKI, VOSITALARI VA SARMOYALARI

77. Jamiyatning mulki egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish ob'ektlari bo'la oladigan moddiy ob'ektlar, shu jumladan pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, ulushlar (paylar, hissalar) hamda nomoddiy ob'ektlarlaridan iborat bo'ladi;

78. Jamiyat o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mulkiga ega bo'ladi. Jamiyat o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga egalik qilishi va ularni amalga oshirishi, majburiyatlar bo'yicha javob berishi, sudda da'vogar va javobgar sifatida ishtirok etishi mumkin.

79. Jamiyat mulki quyidagi manbalar hisobidan shakllanadi:

- mahsulotlarni sotishdan, ish va xizmat ko'rsatishdan, shuningdek xo'jalik faoliyatining boshqa turlaridan olinadigan daromadlar;

- sotib olingan qimmatbaho qog'ozlardan tushgan daromadlar;

- ustav kapitalida ulushga ega bo'lgan nodavlat mulkchilik shaklidagi sub'ektlar foydasidan, shuningdek dividendlar tarzida olinadigan daromadlar;

- markazlashgan va markazlashmagan ajratmalar va mablag'lar;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

80. Jamiyatning daromadi barcha turdagi xizmatlar va bajariladigan ish, shuningdek Jamiyatning tarkibiy bo'linma va korxonalarining mahsulotini sotishdan tushadigan tushumlardan markazlashgan tartibda shakllanadi.

81. Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari, korxonalari, tashkilotlari va muassasalari o'rtasida bepul (beminnat) beriladigan (olinadigan) mol-mulkning qiymati daromad (zarar) deb hisoblanmaydi va qabul qilib oluvchi (beruvchi) tomonidan qo'shimcha qiymat solig'i va daromad solig'i bo'yicha soliqqa tortilmaydi;

82. Jamiyat korxonalari o'rtasidagi ichki ko'chirishlar (o'tkazishlar), tashish jarayonini ta'minlash bilan bog'liq ish bajarish, xizmat ko'rsatishlar mahsulot sotish (ish, xizmat)dan olinadigan daromad (aylanma) sifatida qaralmaydi.

83. Jamiyat o'z tasarrufidagi bo'lgan mulk va mablag'lardan barcha korxonalarining manfaatlarini ko'zlab foydalanadi. Belgilangan tartibda qurishi, qayta tiklashi, sotib olishi, ko'chma va ko'chmas mulkni xarid qilishi, olishi, ijaraga olishi va berishi (ijaraga berilayotgan mulkning ijaraga haqi yuz foiz miqdorida ushbu mulkni balansida saqlovchi korxonaning hisob raqamiga tushadi) hamda qonun xujjatlariga zid bo'lmagan boshqa faoliyatlarni amalga oshirishi mumkin.

84. Jamiyat faoliyati natijalari bo'yicha olingan foyda (daromad), soliqlar va byudjetga to'lanadigan boshqa to'lovlar amalga oshirilgandan so'ng Jamiyat Yagona aksiyadori qaroriga muvofiq taqsimlanadi.

VII BO'LIM. HISOBGA OLISH, HISOBOT BERISH VA NAZORAT

85. Jamiyat va uning bo'linmalari buxgalteriya hisobining Milliy andozalariga muvofiq tezkor va buxgalteriya hisobini yuritadi, shuningdek, amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda buxgalteriya va statistika hisobotlarini tuzadi.

86. Jamiyat korxonalari belgilangan tartibda Jamiyatga soliq va boshqa davlat idoralariga amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq o'zining moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari haqidagi zarur ma'lumotlarni taqdim etadi.

87. Jamiyat va uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va bo'linmalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati nazorati moliyaviy hamda taftish xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, taftish ichki va tashqi audit asosida amalga oshiriladi.

88. Jamiyat Yagona aksiyadori tomonidan saylanadigan taftish komissiyasi Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qiladi va moliyaviy hisobotlarda aks etgan ma'lumotlarni to'g'riligi bo'yicha xulosa, shuningdek moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda, buxgalterlik hisobini olib borish tartibi va moliyaviy hisobotni taqdim qilishda qonunchilikni buzish holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Jamiyat Yagona aksiyadoriga taqdim etadi.

89. Jamiyat va uning tarkibiga kiruvchi korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining ichki auditi, ular tomonidan mulk va mablag'lardan maqsadli foydalanishini tekshirish, shuningdek Jamiyat ijro organining ishini nazorat qilish va baho berish Jamiyatning ichki audit xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

90. Jamiyat va uning korxonalari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining tashqi auditi, amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq, shartnoma asosida auditorlik tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

91. Jamiyat buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, uning holati va haqqoniyligi, yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlarning tegishli idoralarga o'z vaqtida taqdim etilishi, shuningdek, Jamiyatning faoliyati haqida kreditorlarga va ommaviy axborot vositalariga taqdim etilgan ma'lumotlar uchun amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ravishda Jamiyatning ijro etuvchi organi mas'uldir.

92. Ko'rsatilgan hujjatlarni e'lon qilishdan oldin Jamiyat, yillik moliyaviy hisobotlarni tekshirish va tasdiqlash uchun Jamiyat yoki uning korxonalari bilan mulkiy manfaatlar bilan bog'liq bo'lmagan auditorni jalb etishi shart.

93. Jamiyat:

- belgilangan tartibda ro'yxatga olingan Jamiyat Ustavini hamda Ustavga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni, Jamiyatning tuzilishi va qayta tashkil etilishiga doir hujjatlarni, Jamiyatning davlat ro'yxatiga olinishi haqidagi guvohnomani;

- Jamiyatning o'z balansida bo'lgan mulkka egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni;

- Jamiyat tarikibiga kiruvchi korxonalar va bo'linmalar, Jamiyat filiallari va vakolatxonalari haqidagi nizomlarni;

- Jamiyat Yagona aksiyadori, Kuzatuv kengashi va Ijroiya organi yig'ilishlarining bayonnomalarini, shuningdek Jamiyat Ijroiya organining buyruq va farmoyishlari;

- davlatning tegishli organlariga taqdim etiladigan Jamiyatning moliyaviy hisobotlari;

- hay'atlar, auditorlik tashkilotlari, davlat nazorat idoralarining xulosalari va hisobotlarini;

- Jamiyat Ustavida, Jamiyat boshqaruvi organlari qarorlarida, xamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni o'zida saqlashi shart.

VIII BO'LIM. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

94. Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

IX. YAKUNIY QOIDALAR

95. Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar aksiyadorning o'zaro kelishuvi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu ustavga asosan hal qilinadi.

96. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda ular tegishli ravishda sud orqali hal qilinadi.

97. Mazkur Ustav Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

98. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan masalalar, qonunda boshqa hollar nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu Ustavga muvofiq tartibga solinadi.

Boshqaruv raisi



R.M. Erniyazov

